




ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>



DYSLEXIA AS A SPECIFIC COGNITIVE PROFILE OF LANGUAGE PROCESSING: FROM THEORY TO PRACTICE

Dilora Abduhamidovna Nabiyeva

Doctor of Philological Sciences, Professor, Andijan State University

diloranabiyeva385@gmail.com

Andijan, Uzbekistan

Sayyorakhon Koshakboyeva

PhD Researcher (Doctoral Candidate), Kokand State University

kushakboevas@gmail.com

Kokand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: dyslexia, developmental dyslexia, phonological theory, phonological deficit, neuropsychology, cognitive processes, reading disorder, genetic factors, RAN.

Received: 08.03.26

Accepted: 09.03.26

Published: 10.03.26

Abstract: This article examines dyslexia as a specific cognitive profile of language processing. The author comparatively analyzes neurological, psychological, and phonological theories of dyslexia and discusses its neurobiological foundations based on scientific research. Drawing on the works of Samuel T. Orton, Alexander Luria, Margaret Snowling, Stanislas Dehaene, and Sally Shaywitz, the study substantiates the relationship between dyslexia and phonological deficit. The article also addresses genetic factors, cognitive mechanisms, and the importance of early identification and pedagogical intervention. Dyslexia is interpreted not as a categorical disorder but as a cognitive spectrum.

DISLEKSIYA- TILNI QAYTA ISHLASHNING SPETSIFIK KOGNITIV PROFILI SIFATIDA: NAZARIYADAN AMALIYOTGA

Dilora Abduhamidovna Nabiyeva

Andijon Davlat Universiteti filologiya fanlari doktori, professor

diloranabiyeva385@gmail.com

Andijon, O'zbekiston

Sayyoraxon Qo'shaqboyeva

Qo'qon Davlat Universiteti tayanch doktoranti

kushakboevas@gmail.com

Qo‘qon, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: disleksiya, rivojlanish disleksiyasi, fonologik nazariya, fonologik defitsit, neyropsixologiya, kognitiv jarayonlar, oʻqish buzilishi, RAN, genetik omillar.

Annotatsiya: Ushbu maqolada disleksiya tilni qayta ishlashning spetsifik kognitiv profili sifatida tahlil qilinadi. Disleksiyaning nevrologik, psixologik va fonologik nazariyalari qiyosiy koʻrib chiqilib, uning neyrobiologik asoslarini ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Xususan, Samuel T. Orton, Aleksandr Romanovich Luria, Margaret Snowling, Stanislas Dehaene va Sally Shaywitz tadqiqotlariga tayanilgan holda disleksiyaning fonologik defitsit bilan bogʻliqligi asoslab beriladi. Shuningdek, disleksiyaning genetik omillari, kognitiv jarayonlar bilan aloqadorligi hamda erta aniqlash va pedagogik yondashuvning ahamiyati yoritiladi. Maqolada disleksiya qatʼiy kasallik emas, balki kognitiv spektr sifatida talqin qilinadi.

**ДИСЛЕКСИЯ КАК СПЕЦИФИЧЕСКИЙ КОГНИТИВНЫЙ ПРОФИЛЬ
ОБРАБОТКИ ЯЗЫКА: ОТ ТЕОРИИ К ПРАКТИКЕ**

Дилора Абдухамидовна Набиева

Доктор филологических наук, профессор

Андижанский государственный университет

diloranabiyeva385@gmail.com

Андижан, Узбекистан

Сайёрахон Кушакбоева

Базовый докторант, Кокандский государственный университет

kushakboevas@gmail.com

Коканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: дислексия, развитие дислексии, фонологическая теория, фонологический дефицит, нейropsychология, когнитивные процессы, нарушение чтения, генетические факторы, RAN.

Аннотация: В данной статье дислексия рассматривается как специфический когнитивный профиль переработки языка. Автор анализирует неврологические, психологические и фонологические теории дислексии и освещает её нейробиологические основы на основе научных исследований. В частности, опираясь на труды Samuel T. Orton, Alexander Luria, Margaret Snowling, Stanislas Dehaene и Sally Shaywitz, обосновывается связь дислексии с фонологическим дефицитом. Также рассматриваются генетические факторы, когнитивные механизмы и значение ранней диагностики и педагогической коррекции.

Kirish. Bugun savod va imlo masalasida qiynaladigan maktab o'quvchilarini shunchaki o'qishni xohlamaydigan yoki tabiiy o'zlashtirishi past deya baholashga shoshilmaymiz. Chunki o'qish va yozishni sinfdan sinfga o'tgani sari o'zlashtira olmayotgan bolalarda yuzaki qaralganda sezilmaydigan, ammo jiddiy bo'lgan muammo bo'lishi mumkin. Bu rivojlanish disleksiyasi bo'lib, orttirilgan emas, balki tug'ma yoki neyrobiologik rivojlanish xususiyatlariga bog'liq bo'lgan o'qish buzilishidir. Zamonaviy tadqiqotlar disleksiyani intellekt yetishmovchiligi emas, tilni qayta ishlashdagi ayrim o'ziga xosliklar bilan izohlashadi

Disleksiya haqidagi ilk ma'lumotlarga tayanib uni tahlil qiluvchilar, disleksiyaga xuddi afaziya kabi miyaning turli darajada shikastlanishi natijasida o'qish buzilishi kelib chiqadi, deb hisoblashgan. Ammo keyingi tadqiqotlar natijasida disleksiyasini o'rganish tibbiyot hodimlaridan pedagog va psixologlarning o'rganish obyektiga aylandi. Chunki disleksiv bolalar jismoniy jihatdan sog'lom bo'lib, tengdoshlaridek normal fikrlaydigan bo'lishadi va bir qarashda ularda disleksiya alomatlarini sezib bo'lmaydi. Bolaga harflarni tanitib, o'qish va yozish jarayonini olib borgan pedagoglarga buni aniqlay oladi.

Ayni shu jihatdan olganda ilgari disleksiyaga pedagogik muammo sifatida qaralgan. Bolada o'qish va yozishda tengdoshlaridan ortda qolishi o'zining darsga yetarlicha e'tibor bermasligi yoki pedagogdagi malakaning yetishmasligi bilan izohlangan. Biroq nevrolog olim Samuel T. Orton o'qish qiyinchiligi ko'rishdagi muammo bilan bog'liq emasligini ta'kidlagan. U maktabda bolalar harflar bilan ishlayotgan ularni tovush bilan talaffuz qilib so'ng yozuvda kiritish taklifini bergan va u bolaga harf tanitishda faqat vizual yondashish xato ekanligini ta'kidlagan.

Metodologiya

Bugun dunyo aholisining 10-15 foizida disleksiya alomatlari mavjudligi e'tirof etiladi. Xalqaro disleksiya assotsiatsiyasi (IDA) ma'lumotlariga ko'ra, bu o'quvchilarning har 5 nafaridan birida o'qish bilan bog'liq qiyinchiliklar borligini anglatadi va bu har bir bolada o'ziga xos sabablar bilan xarakterlanadi. Butun dunyo olimlari disleksiya sabablari sifatida bir nechta omillarni keltirishadi. Xususan, vizual-diqqat defitsiti, ya'ni so'zdagi harflar ketma-ketligini va pozitsiyasini kodlashdagi muammolar; tezkor nomlash defitsiti (Rapid Automated Naming-RAN)- vizual belgini (harf, raqam) tezlik bilan tovushga aylantirish qobiliyatining pastligi (bu ikki omil bir nazariyaga, ya'ni Salli Shayvizning fonologik nazariyasiga muvofiq keladi); sereblliyar (miyacha) nazariya- harakatlarni avtomatizatsiya qilishdagi umumiy muammolar. Umuman olganda, disleksiya haqidagi nazariyalarni uchta katta guruhga bo'lish mumkin: nevrologik, psixologik va fonologik.

Bir guruh olimlar disleksiyani miyaning nutqqa javobgar qismlari o'z faoliyatini yetarlicha bajarmaganligida yoki odatiy bo'lmagan tartibda ishlashi natijasida kelib chiqadi deb hisoblaydilar. A.R. Luriya o'zining "Neyropsixologiya asoslari" asarida nutq faoliyatini inson miyasining murakkab funksional tizimlari orqali amalga oshirilishini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, nutqning har bir bosqichi — eshitish, tushunish, talaffuz va yozish — miyaning turli zonalarida o'rtasidagi funksional aloqadorlikka tayanadi. Shu sababli, markaziy asab tizimining organik shikastlanishi natijasida nutqning turli jihatlari buzilishi kuzatilishi bilan birga bu axborotni qabul qilish, xususan, o'qish darajasiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi.

T.V. Axutina o'z tadqiqotlarida Luriyaning funksional tizimlar konsepsiyasini rivojlantirib, bolalarda yozma va og'zaki nutq buzilishlari ko'pincha chap yarim shar (dominant) kortikal strukturalar faoliyatining sustligi yoki nosog'lom integratsiyasi bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Ayni fikrlarni biz Ortonning nazariyasida ham ko'rishimiz mumkin: dominant bo'lmagan yarimshar tasvirlar va belgilarni aks ettirishi dominant yarimshar, ya'ni miyaning chap qismida tasvirni to'g'ri aks ettirilmayligiga sabab bo'ladi. Natijada o'qish jarayonida o'quvchilar harflarni teskari holatda, yonbosh holatda ko'rishlari, yoki birining o'rnida boshqasi ko'z oldida gavdalanishi kabi to'siqlarga uchraydilar.

Disleksiya haqidagi nazariyalarning ko'pi olimlar tomonidan ilmiy isbotlangan bo'lib, ilk marta Samuel T Orton o'qish qiyinchiligiga duch kelgan bolalarda muammo ko'rish bilan bog'liq emasligini isbotlab bergan. Ya'ni tengdoshlari kabi normal ko'ra oladigan bolalarda ham harflarni o'qiy olmaslik yoki almashtirish holatlari qayd etilgan (muammo juda kam foizlarda visual bo'lishi mumkin. Qachonki o'quvchida chindan ham ko'rish retseptorlarining faoliyati odatdagi tartibdan boshqacha ishlasa). Shuningdek, miyada hech qanday jarohatlar bo'lmagan bolalar ham harflarni tanishda qiynalishini kuzatuvlari asosida xulosalagan. 1925-yilda Orton "strephosymbolia" (burilgan belgilar) atamasini kiritdi va bu orqali disleksiv bolalar harflarni to'g'ri emas, yonbosh yoki butunlay teskari holda o'qishlarini izohladi.

Disleksiv bolalar bilan ishlash jarayonida muammo qaysi jihatga bog'liq ekani nazarda tutiladi. Agar boladagi harflarni taniy olmaslik holati miya yarimsharlari bilan bog'liq bo'lsa, yechim sifatida nevrologiya va pedagogika birga olib boriladi.

Natijalar

Disleksiya haqidagi izlanishlar orasida uni genetikaga aloqasi haqida ham fikrlar mavjud. Ma'lum bo'lishicha, disleksiya oilaviy xarakterga ega bo'lib, avlodda kimdir bu muammoga duch kelgan bo'lsa, demak kelgusida bu holat yana kimdadir takrorlanadi. Egizaklar ustida olib borilgan tadqiqotlar disleksiyaning irsiy komponenti borligini aniqlashgan. Amerikalik olimlar kamida bitta disleksiv bolasi bor oilalarda tajriba o'tkazishadi. Va xulosa qilishadiki, disleksiya faqat bir gen emas, bir nechta genlarning bog'liqligidan hosil bo'ladi. Shuningdek, 6p22.2 hududida

joylashgan KIAA 0319 geni disleksiyaga sabab bo'lishi amaliy tajribalar orqali isbotlangan. Va bu ko'rsatadiki, insonda mavjud genlar albatta o'qish darajasiga ta'sir o'tkazadi. Disleksiyani faqat bir gen bilan emas, ko'p genli rivojlanish xususiyati sifatida baholash o'rinli bo'ladi.

O'quvchilarda o'zlashtirish masalasi psixologik yetishmovchilik natijasida kelib chiqishi haqida ayrim gipotezalar ham mavjud bo'lib, ular disleksiya kognitiv jarayonlar bilan bog'liq ekanini ta'kidlashadi. Xususan, Bruce Pennington disleksiyani tushuntirar ekan, harf tanish jarayonida o'quvchida fonologik malaka bilan birga diqqat, xotira kabi ko'nikmalar ham normal shakllangan bo'lishi kerakligini aytadi Kanadalik-amerikalik kognitiv psixolog Keith Stanovich esa o'qishdagi qiyinchilik bola psixologiyasiga ta'sir qilishini ko'rsatgan. U o'zining "Matthew effekti" atamasini taklif qilgan. Uning mazmuni esa dastlabki bosqichlarda yaxshi o'qiy olmagan bola, keyinchalik ham buni o'zlashtirishi qiyin bo'ladi. Chunki boladagi o'qiy olmaslik holati uning kognitiv rivojiga ta'sir qiladi, shuningdek, o'quv motivatsiyasiga ham. Bola psixologiyasiga murojaat qilarkanmiz, chindan ham har qanday ishni muvaffaqiyat bilan yakunlash bolada o'ziga bolgan ishonchni o'stiradi, yanada shu ishga ishtiyoq bilan kirishishga undaydi. Birinchi martada qiynalish, eplay olmaslik hissi uni keyingi safar urinib ko'rishda ikkilanishga olib keladi. Xuddi shuningdek, o'qish jarayonida ham qayta qayta harakat qilsa-da, harflar unga begonadek tuyiladi, diqqatini jamlolmagach, o'zlashtirolmayman, o'qiy olmayman degan tasavvur bola ongiga o'rnasha boshlaydi.

Disleksiya atrofidagi nazariyalar orasida eng muhimi- fonologik nazariya ko'p olimlar tomonidan disleksiyaning asosiy sababi sifatida e'tirof etilmoqda. Bunda muammo fonematik idrokning yetarli emasligida. Isabelle Liberman va boshqa olimlar olib borgan tajribaga ko'ra, o'quvchilarda fonologik ko'nikma yetarli bo'lmaganda, fonemalarni farqlash va nomlashda jiddiy qiyinchilik yuzaga kelishi mumkin. Fonemalar tabiatan mavhum bo'lib, og'zaki shaklda ular vaziyatga qarab turli tarzda ifodalandi. Ya'ni o'zi birga kelayotgan tovush tabiatiga moslashadi. Ana shu farqni tushunish va o'rnida to'g'ri qo'llay olish uchun esa o'quvchilarada fonologik ko'nikma shakllangan bo'lishi muhim. Bolada bu ko'nikma yetishmaganda harf-tovush mosligi o'zlashtirilishi qiyinlashadi, bu esa o'qish tezligi va aniqligiga ta'sir qiladi. Bugungi fonologik nazariyaning asosini Snowling tadqiqotlari tashkil qiladi. Unga ko'ra disleksiv bolalarda fonologik protsesslar buzilgan bo'lib, ular butun so'zlarni tovushlarga ajratishda yoki ularni yozuvda ifodalashda qiynaladilar.

Fransuz olimi Stanislas Dehaene bu yo'nalishda tajribalar olib borgan tadqiqotchilardan biri hisoblanib, uning fikricha, disleksiya miya fonologik markazlari va ko'rish bilan bog'liq jarayon bo'lib, bunday bolalarda harflarni tanish va dekodlash jarayoni odatiy tartibda ishlamaydi. Natijada o'qish buzilishlari kelib chiqadi .

Muhokama

Yel universiteti qoshidagi Disleksiya va ijodkorlik markazi asoschisi va disleksiya bo'yicha dunyodagi yetakchi ekspertlardan biri Salli Shayviz fonologik defitsit gipotezasi asosida disleksiya sabablarini neyrobiologik jihatdan isbotlashga harakat qiladi. Olima disleksiyaning intellektning pastligi bilan emas, balki miyadagi til tizimining quyi darajasidagi "uzilish" bilan izohlaydi. Uning qayd etishicha, so'zlash(gapirish) tabiiy jarayon bo'lishiga qaramay, o'qish o'rganish asosida hosil qilinadigan ko'nikmadir. O'qish uchun inson yozma belgilar(grafemalar)ni tilning tovush birliklari(fonemalar)ga aylantira olishi kerak. Disleksiyasi bor insonlarga yuqori tartibli kognitiv funksiyalar(mantiq, tushunish, ijodkorlik) yaxshi rivojlangan bo'lsa-da, tovushlarni kodlash/dekodlashdagi "uzilish", fonologik defitsit tufayli ular matn ma'nosini shakllantira olmaydilar. Buning sababi esa neyrobiologik defitsit bilan, ya'ni disleksiyasi bor bolalar miyasining chap yarimsharining orqa qismidagi so'zlarni avtomatik va tez tahlil qilish uchun mas'ul bo'lgan sohalari(parietal-temporal va oksipito-temporal sohalari) yetarlicha faol emasligi bilan izohlanadi.

Ko'rinadiki, bugun fonologik nazariya disleksiya sabablarini to'g'ri talqin qilishda muhim qarashlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Fonologik jarayon o'qishni o'zlashtirishda asosiy o'rinda turishi ilmiy dalillar bilan isbotlanmoqda. Fonologiya nutq tovushlarini o'rganar ekan, ayni damda o'qishning neyrofiziologik va psixologik asoslarini izohlashga ham xizmat qiladi. Maktabgacha bo'lgan bolalarda kelajakda disleksiya holati bo'lmasligi uchun ularda fonologik ko'nikmani ertaroq shakllantirish, fonema haqidagi ilk tasavvurlar va harf-tovush munosabatini o'rgatish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa

Disleksiya sabablari o'rganilib aniqlik kiritilar ekan, o'qishni o'zlashtirmagan har qanday o'quvchida disleksiya bor degan tahmindan qochish kerak. Chunki bola turli vaziyatlar sabab o'qishni xohlamasligi mumkin. Undagi psixologik holat, oiladagi vaziyat, atrofdagilar munosabati va hokazo...lar ham bolada savod va imlo masalasida ortda qolishga olib kelishi mumkin. O'qish qiyinchiligiga duch kelgan har bir bola bilan ishlash jarayonida bolani yaxshilab har jihatdan o'rganish, ota-onalar bilan suhbat kabi bosqichlardan o'tiladi. Eng ahamiyatlisi, har bir bola bilan individual ishlanib, undagi fiziologik, psixologik holatlar inobatga olinsa, disleksiyaning oldini olish yoki o'qish jarayonida yengillikka erishish mumkin. Umuman olganda, disleksiya "bor yoki yo'q" shaklidagi qat'iy kasallik emas, balki kognitiv-spektr(darajalar tizimi) hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akhutina, T. V. (2002). Neyropsixologicheskiy analiz oshibok na pis'me. Moskva: Akademiya.
2. Dehaene, S. (2009). Reading in the Brain: The New Science of How We Read. New York: Viking.

3. Liberman, I. Y., & Liberman, A. M. (1990). Whole language vs. code emphasis: Underlying assumptions and their implications for reading instruction. *Annals of Dyslexia*, 40, 51–76.
4. Luria, A. R. (1973). *The Working Brain: An Introduction to Neuropsychology*. New York: Basic Books.
5. Orton, S. T. (1925). “Word-blindness” in school children. *Archives of Neurology and Psychiatry*, 14(5), 581–615.
6. Pennington, B. F. (2006). From single to multiple deficit models of developmental disorders. *Cognition*, 101(2), 385–413.
7. Shaywitz, S. E. (2003). *Overcoming Dyslexia*. New York: Alfred A. Knopf.
8. Snowling, M. J. (2000). *Dyslexia* (2nd ed.). Oxford: Blackwell Publishers.
9. Stanovich, K. E. (1986). Matthew effects in reading: Some consequences of individual differences in the acquisition of literacy. *Reading Research Quarterly*, 21(4), 360–407